



**BO'LAJAK PEDAGOGLARDA TARBIYA DARSLARINI SAMARALI
TASHKIL ETISHNI KOMPITENIYASINI RIVOJLANTIRISH SHAKL
VA METODLARI.**

Sheraliyeva Nasiba Alimkulovna

*Guliston davlat pedagogika institute "Pedagogika va psixologiya"
kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: *"Tarbiya" fani o'qituvchisining ijtimoiy kompetensiyasi ijtimoiy ish shakli bo'lib, u aholi, kasbdoshlar, o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan olib boriladigan pedagogik mazmundagi ishlarda namoyon bo'ladi. Biz professional "Tarbiya" fani o'qituvchisi bilan intuitiv, ba'zida esa impulsiv ravishda yo'l tutuvchi, shaxsiy tajriba, kasb taqozosiga asoslangan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatayotgan fuqaro, odam o'rtasidagi farq avvalo maqsadni aniq bilish, natijalarni bashorat qilish, nazariy, uslubiy va texnologik tayyorgarlik, doimiy maqsadli ish bilan bog'liqligini, o'z ustida ishlashda namoyon bo'ladi. Mamlakatimizda tarbiyaviy ishlarni hamda pedagoglarda ijtimoiy kompetensiyalarni modernizasiyalashtirishning zarurati va mazmun mohiyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chor tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarorida asoslab berildi. Qarorga ko'ra O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy- texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlarni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish talab etilmoqda. Ushbu maqolada Tarbiya fani o'qituvchisi oldiga ijtimoiy kompetensiyaning kognitiv va operatsional komponentlari ishtirokida ta'minlanuvchi masala qo'yildi. Bu – umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari asosida o'quvchilarda yoshiga mos tayanch ma'naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar sifatida Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muayyan ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *kompetensiya, mexanizim, hamkorlik, uzluksiz, pedagogik, ma'suliyat, indikator, ommaviy axborot.*

Аннотация: *Аннотация: социальная компетентность учителя предмета "воспитание" -это форма социальной работы, которая проявляется в работе педагогического содержания с населением, коллегами, воспитанниками и их родителями. Мы видим, что различие между учителем профессионального "воспитательного" предмета и гражданином, человеком, интуитивно, а иногда и импульсивно действующим, оказывающим воспитательное воздействие, основанное*



на личном опыте, профессиональном требовании, прежде всего, связано с четким знанием цели, прогнозированием результатов, теоретической, методической и технологической подготовкой, постоянной целенаправленной работой, проявляется в работе над собой. Необходимость и содержание модернизации воспитательной работы и социальных компетенций педагогов в нашей стране были обоснованы в постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 31 декабря 2019 года № 1059 “Об утверждении концепции непрерывного духовного воспитания и мерах по ее реализации”. Согласно постановлению, работа по научно - технологической реформе воспитания молодежи в Узбекистане на современной основе требует формирования научно обоснованных базовых компетенций, качеств, исходя из потребностей сегодняшнего дня. В данной статье перед педагогом-педагогом ставится вопрос об обеспечении наличия познавательной и оперантной составляющих социальной компетентности. Это-в соответствии с государственным образовательным стандартом и учебными программами общего среднего образования в качестве основных духовно-нравственных качеств (компетенций), соответствующих возрасту, у учащихся проявляются определенные духовно-нравственные качества, такие как преданность Родине, предпринимательство, воля, идеологический иммунитет, доброта, ответственность, толерантность, правовая культура, новаторское мышление, трудолюбие. освещается вопрос формирования компетенций.

Ключевые слова: *компетенция, механизм, сотрудничество, непрерывность, педагогика, ответственность, индикатор, медиа-информация.*

Abstract: *the social competence of a teacher of the subject " education" is a form of social work that manifests itself in the work of pedagogical content with the population, colleagues, pupils and their parents. We see that the difference between a teacher of a professional "educational" subject and a citizen, a person who acts intuitively and sometimes impulsively, exerting an educational influence based on personal experience and professional requirements, is primarily related to a clear knowledge of the goal, forecasting results, theoretical, methodological and technological training, constant purposeful work, it manifests itself in self-improvement. The need and content of modernizing the educational work and social competencies of teachers in our country were justified in Resolution No. 1059 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 31, 2019 "On approval of the concept of continuous spiritual education and measures for its implementation." According to the resolution, the work on scientific and technological reform of youth education in Uzbekistan on a modern basis requires the formation of scientifically sound basic competencies and qualities based on the needs of today. In this article, the teacher-educator is faced with the question of ensuring the availability of cognitive and operant components of social competence. This is in accordance with the state educational standard and curricula of general secondary education, as the main spiritual and moral qualities (competencies) appropriate to age, students exhibit certain*





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



spiritual and moral qualities such as devotion to the Motherland, entrepreneurship, will, ideological immunity, kindness, responsibility, tolerance, legal culture, innovative thinking., hard work. The issue of competence formation is highlighted.

Keywords: *competence, mechanism, cooperation, continuous, pedagogical, responsibility, indicator, mass media.*

Konsepsiyada Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar -yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatid a uzluksiz ta’lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o‘zaro samarali hamkorlik mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish;

31amaliy odatlarga aylanmayotgani, buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo‘layotgani, bu esa mustaqil hayotga kiribkelayotgan yigit-qizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarniyuzaga keltirayotgani;Ayrim o‘quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o‘zini o‘zi o‘qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, mas’uliyatlik fazilatlar yetarli rivojlanmaganligi ta’lim sifatiga ham zarar ko‘rsatayotgani ta’kidlandi; Ma’naviy tarbiya sohasida o‘qituvchilarning faoliyatini metodik ta’minlovchi o‘quvmateriallari, shu jumladan, ma’naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo‘llanmalar, o‘quvchilar uchun zarur darsliklar yetarli emasligi “Tarbiya” fani o‘qituvchilarini tayyorlash mazmuni va jarayonini modernizasiyalashni talab qilmoqda. Ushbu muammolarning ijobiy yechimi o‘qituvchilarning ijtimoiy kompetensiya-laridagi muammolarga bevosita bog‘liq. Zero tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarini kafolatli shakllantirishda oliy ta’lim muassasalari va maktabning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu esa Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarorining 2-ilovasida Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasining II bosqichi qanday amalga oshishi shaxsan o‘quvchiga bog‘liq bo‘lib turibdi. Chunki ma’naviy axloqiy tarbiyaning bosh va yagona, professional hal qiluvchi subyekti – “Tarbiya” fani o‘qituvchisidir. Qaror 2-ilovasining VI bobi “Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani amalga oshirish”, deb belgilangan. Unda umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya jarayonining birinchi davri boshlang‘ich sinflarni qamrab olishi belgilab berilgan. Konsepsiya va chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari etib: – 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan aholi, ayniqsa yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyishta xayot uchun eng zarur tayanch kompetensiyalari bilan ta’minlash; – ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish; – tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda go‘daklar va bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni belgilash; – yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet,



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag’rikenglik, huquqiy madaniyat, innovasion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqichshakllantirish– uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o‘qituvchi,

-uzluksiz ta’lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o‘zaro samarali hamkorlik mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish;

– aholining farzand tarbiyasi bo‘yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma’naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o‘tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish;

– ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali tarqatilayotgan g‘arazli axborotlar, odob-axloqini yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish;

– uzluksiz ma’naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo‘lga qo‘yish kabi bevosita ijtimoiy kompetensiyalar bilan bog‘liq vazifalar belgilab berildi.

320

Biz uchun bunda “Tarbiya” fani o‘qituvchilariga qo‘yilayotgan quyidagi konseptual alohida ahamiyat kasb etadi.

Bular: “Tarbiya” fani orqali o‘quvchilarda ma’naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’lim mazmuniga keng singdirish;

o‘quv fanlari doirasidagi ma’naviy tarbiya indikatorlarini amaliyotga joriy etish, ularni amaliyotda qo‘llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq va topshiriqlar bilan boyitish;

muvaffaqiyatga erishishga intilish motivini shaxsning ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlash;

bolaning o‘z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish;

o‘zining va atrofdagilarning xulqi, hatti-harakatlariga munosabat bildirish, mehnatsevarlikka o‘rgatish;

kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga ijtimoiy motivlarning paydo bo‘lishi;

bilimlarning kengayishi, chuqurlashuvi, ma’naviy-axloqiy ko‘nikma va malakalarning rivojlanishi;

o‘z xalqi va boshqa xalqlarning an‘analari, qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo‘lishi;

ijtimoiylashuv jarayonida talab etiladigan yoshiga mos shaxsiy fazilatlarni shakllantirish;

xavfsiz hayot ko‘nikmalarini mustahkamlash;

kasblar to‘g‘risida tasavvurlarni kengaytirish, kasbga va mehnatga qiziqtirish;



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



vijdonan mehnat qilish ko'nikmalarini o'rgatish, mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko'rsatish;

muvaffaqiyatga erishish motivlarini kuchaytirish;

o'zini-o'zi baholashga o'rgatish;

faoliyatda o'zini ko'rsatishga intilishni rag'batlantirish;

tengdoshlari bilan ma'naviy-axloqiy munosabatlar tajribasini boyitish;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishni o'z ichiga oladi.

“Tarbiya” fani o'qituvchisining ijtimoiy kompetensiyasi ijtimoiy ish shakli bo'lib, aholi, kasbdoshlar, o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan olib boriladigan pedagogik mazmundagi ishlarda namoyon bo'ladi.

Biz professional “Tarbiya” fani o'qituvchisi bilan intuitiv, ba'zida esa impulsiv ravishda yo'l tutuvchi, shaxsiy tajriba, kasb taqozosiga asoslangan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatayotgan fuqaro, odam o'rtasidagi farq avvalo maqsadni aniq bilish, natijalarni bashorat qilish, nazariy, uslubiy va texnologik tayyorgarlik, doimiy maqsadli ish bilan bog'liqligini, o'z ustida ishlashda namoyon bo'lishini aniqladik.

Bunda Uzluksiz ma'naviy tarbiya tamoyillari sifatida:

– tarbiya maqsadi va yo'nalishlarining milliy g'oya ro'yobiga yo'naltirilishi;

321

– ilmiylik (tarbiya tizimining ilmiy asosda tashkil etilishi, amalga oshirilishi, baholanishi, takomillashtira borilishi);

– texnologik ta'minlanganlik (ko'zda tutilgan natijani kafolatli loyihalash va amalga oshirish);

– uzviylik, uzluksizlik (o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalar negizida yangi bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirib borish, ularning navbatdagi bosqichga asos bo'la olishiga erishish);

-yakka tartibda yondashuv (tarbiyalanuvchilarning yosh, individual xususiyatlarini o'rganish va tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda ularga tayanish);

– modernizasiya (tarbiyaviy tizimning muntazam zamonaviylashtira borilishi, tarbiyaning zamon talablariga mosligi);

-kompetensiyaviy yondashuv (shakllantiriladigan tayanch fazilatlar to'g'risida tasavvur va tushunchaga ega bo'lish – ko'nikma – malaka kompetensiya dinamikasiga erishish);

– ta'lim va tarbiya birligi;

– pedagogik mas'uliyat (ota-ona, uzluksiz ta'lim subyektlari, davlat va jamoat tashkilotlari, pedagoglar tomonidan yoshlar tarbiyasi uchun mas'uliyatga amal qilinishi, pedagogik hamkorlik).

Bu bizga amaliyotga empirik tarzda emas, balki o'quv-tarbiya jarayonining muntazam monitoringidan kelib chiqib yondoshishni, hamkasblar, o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan pedagogik munosabatlarning eng maqbul variantlarini topa olish malakalarini talab qiladi. Ushbu yo'nalishlardan biri ota-onalar bilan hamkorlik



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



bo‘lib, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi” ning “Tarbiya” fani o‘qituvchilariga qo‘ygan asosiy talablaridan birini tashkil qiladi. Oila va maktabning tarbiyaviy hamkorligini o‘rganish bu jahda muayyan muammolar mavjudligini ham ko‘rsatdi. Buni bir tomondan, “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining “Ota-onalar bolalarining o‘qishi, tarbiyasi bilan qiziqmayaptilar”, “Ota-onalar majlislarida otalar qatnashmayapti. Faqat ayrim onalargina kelishayapti”. “Ota onalar bolalari fanlardan olgan bahoga qiziqishadi, xolos. Ularning ma’naviyati, tarbiyasi, bo‘sh vaqti bilan qiziqishmayapti. “Bolalari bilan samimiy suhbatlasha olmaydilar” degan fikrlarida ko‘rish mumkin.

Ikkinchi tomondan, ota-onalarning:

Pedagog, o‘qituvchilar o‘quvchining qalbiga qanday kirishni bilmaydilar. Ularni davomat, bolalarning bilimi, intizomigina qiziqtiradi. Turli tarbiyaviy tadbirlar qilib, o‘quvchilarni qiziqtirishni bilishmaydi. O‘qituvchilarning ota-onalar, o‘quvchilar bilan muomalalari sovuq. Tanqid qilsangiz bolangizga yomon baho qo‘yishadi. Ota-onalar yig‘ilishlari zerikarli o‘tadi. Biror bayram, ish, hashar bo‘lsa, chaqirishadi, bo‘lmasa –yo‘q”, degan fikrlari namoyon qilmoqda.

Bunday o‘zaro e‘tirozlarning mavjudligiga sabab –“Tarbiya” fani o‘qituvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarning rivojlanmaganligi ota-onalar orasidagi tarbiyaviy hamkorlik to‘laqonli o‘rnatilmaganligida namoyon bo‘lmoqda. “Tarbiya” fani o‘qituvchilari – maktab, oila va mahalla bilan tarbiyaviy hamkorlik o‘rnatish va rivojlantirishda katta imkoniyatlarga egalar. Buning uchun ilg‘or tajribani o‘rganish “Tarbiya” fani o‘qituvchilari ijtimoiy kompetensiyasi tarkibiga:

– ota-onalar majlisleri kun tartiblariga ma’naviy-ma’rifiy masalalarni kiritish; mazkur yo‘nalishning yillik rejasini tuzib, ota-onalar bilan muhokama qilish va unda ota-onalarning manfaatli ishtirokini ta‘minlash;

322

oilalar bilan bevosita; bivosita; og‘zaki;

yozma; virtual, internet orqali aloqalar o‘rnatish;

– ota-onalarni o‘zaro, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya manfaatlariga xizmat qiluvchi hamjihatliklariga erishish;

– avlodlararo birlikni mustahkamlashga qaratilgan birgalikdagi faoliyatni tashkil qilish;

– ota-onalar, ayniqsa yosh ota-onalar bilan oilada qanday qilib yuksak ma’naviy ehtiyojlarni shakllantirish mumkin? O‘qish, dars tayyorlash jarayonini qanday tashkil qilish kerak? Bolalarda do‘stlik, fazilati nima? Bolalarni qanday qilib xushmuomalalikka o‘rgatish mumkin? Bu masalada pedagog o‘qituvchilar bilan oila hamkorligi nimalarni nazarda tutadi? Bolaning qiziqishlarini qanday o‘rganish kerak? kabi savollarga javoblar berishga to‘g‘ri kelmoqda. Izlanishlar natijasida o‘qituvchilar uchun urli xil metod texnologiyalardan foydalanish vazifasi yuklatildi. Manshu texnologiyalardan biri “Buktreyler” texnologiyasidir. Kelin bu texnologiyaning avfzaliklari imkoniyatlari bilan tanishib chiqamiz. “Buktreyler nima? Qanday qilib bu talaba yoshlarni kitob bilan tanishtirishning zamonaviy usuli bo‘lishi mumkin? ” Material ta‘lim muassasasi oilalarga



maktab yoshdagi bolalarni kitobxon sifatida rivojlantirishga yordam beradi. Va maktab yoshdagi bolalar bilan ishlashning innovatsion shakli bolaning e’iborini badiiy asarni o’qishga jalb qilish uchun kitobni e’lon qilish uchun material yaratish - buklet treyleri texnologiyasi ajoyib yordamchidir. Buktreyler – bu qanday texnologiya avvalo bu texnologiya bilan yaqindan tanishib olaylik.

Buktreyler texnologiyasini muallifi kim va qayerda paydo bo’lgan?

Buktreylerlarning aniq muallifi yoki yaratuvchisi yo’q, chunki bu kontentni yaratishda asosan marketing guruhi, yozuvchi yoki nashriyotlar qatnashadi. Buktreylerlar **XX asrning oxiri – XXI asrning boshlarida**, asosan **internet va ijtimoiy tarmoqlarning** rivojlanishi bilan keng tarqaldi. Birinchi buktreylerlar 2000-yillarning boshlarida ommalashgan. Biroq, ular asosan **AQShda** va boshqa rivojlangan mamlakatlarda paydo bo’lgan.

Buktreyler – bu kitobning o’ziga xos video reklamasidir. Buktreylerlar kitobning asosiy mavzusini, g’oyasini yoki hikoyasini qisqacha, jozibali tarzda taqdim etadi. **Buktreyler yaratishning maqsadi** – kitobni reklama qilish va uni o’quvchiga tavsiya qilish, shuningdek, kitobga qiziqishni oshirishdir. Bu asar haqidagi qisqacha tasavvur yaratish uchun muhim vosita hisoblanadi. Buktreyler (book trailer) - bu kitobning qiziqarli va qisqacha ta’rifini beruvchi video yoki multimediali taqdimotdir. Kitobning mohiyatini, asosiy mavzusini yoki qahramonlarini tanishtirish maqsadida tayyorlanadi. U odatda internetda, ijtimoiy tarmoqlarda yoki kitoblar do’konlarida kitobni targ’ib qilish uchun ishlatiladi. Buktreylerlarning aniq bir muallifi yo’q, chunki ularning yaratilishi, aslida, kitoblarni targ’ib qilishda ishlovchilar (yosh yozuvchilar, nashriyotlar yoki marketing guruhi) tomonidan amalga oshirilgan ijodiy jarayondir. Biroq, buktreylerlarning o’zini yaratishda yordam beruvchi bir qancha professionallar mavjud: video montajchilari, grafik dizaynerlar, va musiqachilar.

Xulosa qilib aytganda, Kitobxonlik - bu shaxsning o’z maqsadiga erishish, bilim va imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun yozma matnlarni tushunish va undan foydalanish, ular haqida fikr yuritish, o’qish bilan shug’ullanish qobiliyatidir. Tarbiya darslarini tashkil qilishning yangi shakllari orasida “Buktreyler” texnologiyasi so’nggi paytlarda tobora ommalashib bormoqda. Internetda kitoblarga asoslangan videolar ko’payib bormoqda. Yorqin vizual tasvirlar, tez o’zgaruvchan suratlar, qisqalik bilan bayon qilinishi o’quvchilarda qiziqish uyg’otadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1.O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda
“Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chor
tadbirlari to’g’risida”gi 1059-sonli qarori

2.Aliev, A. "Pedagogik kompetensiya: Tushunchalar, tarkibi va rivojlanish yo'llari".
"O'qituvchilik san'ati" jurnali, 1(1), 2019.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



3.Asqarova, N. "Pedagogik kompetensiya: Zamonaviy talablar". "O'zbekiston maktabi" jurnali, 5(11), 2017.

4.Xummamatova, K.X. "bo'lajak pedagoglar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning interfaol metodlari". Innovative Development in Educational Activities 3, no. 6, 2024.

5.Qosimov, M. "O'qituvchi kompetentligini rivojlantirishning metodologik asoslari".

6.Sotvoldiyeva, D.D. "ta`limda samaradorlik mezonida interfaol usullardan foydalanish".

7.Sharapov, M.M. "bolajak oqituvchilar tayyorlashning zamonaviy metodlari". 8.Mirova, M.A. "zamonaviy darslarda kompetensiya va ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalanish".

